

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ABRIYEV ZOIRJON SOBIRJONOVICH**

**O‘ZBEKISTONDA TURIZM SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation the abstract Doctorof Philosophy (PhD)  
in economics sciences**

**Abriyev Zoirjon Sobirjonovich**

О‘zbekistonda turizm salohiyatini rivojlantirish mexanizmlarini  
takomillashtirish.....3

**Абриев Зоиржон Собиржонович**

Совершенствование механизмов развития туристического потенциала  
Узбекистана .....27

**Abriyev Zoirjon Sobirjonovich**

Improving the mechanism for developing the tourism potential of Uzbekistan .....51

**Е’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works.....56

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ABRIYEV ZOIRJON SOBIRJONOVICH**

**O‘ZBEKISTONDA TURIZM SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2021.2.PhD/Iqt1756 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Abduvohidov Abdumalik Mahkamovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**Rasmiy opponentlar:** **Pardayev Olim Mamayunosovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**Navro'z-zoda Baxtiyor Negmatovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, Faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel. (99871) 239-28-72, Faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «\_\_\_\_\_»\_\_\_\_\_kuni tarqatildi  
2023 yil «\_\_\_\_\_»\_\_\_\_\_dagi raqamli reyestr bayonnomasi

**M.P. Eshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**U.V. G'afurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

**A.A. Eshtayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda global darajadagi beqarorlik hamda raqobatning kuchayib borishi sharoitida, turli muammolar, masalan, COVID-19 koronavirus pandemiyasining salbiy ta'siri natijasida turizm sohasining rivojlanishida sezilarli tebranishlar ro'y bermoqda. "Butun dunyo bo'yicha 80 foizi kichik, shu jumladan, oilaviy korxonalaridan tarkib topgan turistik sektorda har o'ninchi ishlovchi odam band hisoblanadi. Inqirozning boshlanishidayoq Butunjahon turizm tashkiloti umumjahon turistik oqimining 70 foizga qadar qisqarishini bashorat qilgan edi. ...BMT Savdo va rivojlanish Konferensiyasi (YuNKTAD)ning bahosiga ko'ra, turistik tarmoqdagi uzilishlar jahon YaIMni 1,5 – 2,8 foizga qisqarishiga olib keladi. Bundan tashqari, turistlar sonining qisqarishi, ehtimollarga ko'ra, 120 mln. nafarga yaqin odamlar ishsiz qoladi". Shunga ko'ra, hozirda jahonda turizm sektorida ro'y bergan yo'qotishlarning oldini olish, pandemiyadan oldingi holatga qaytarish maqsadida turizm salohiyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda global raqobatning kuchayib borishi sharoitida turizm salohiyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiqiga bag'ishlangan qator izlanishlar olib brilmoqda. Turizm salohiyatini tadqiq etishning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish, turizm salohiyatini ifodalovchi mavjud resurslar va imkoniyatlar tarkibini aniqlashtirish, turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish omillarini baholash, turizmning innovatsion shakllarini joriy etish, turizm salohiyatini ekologik, moliyaviy jihatdan ta'minlashda davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish mexanizmini yo'lga qo'yish, turizm salohiyati rivojlanishining uzoq muddatli istiqbollari baholash uslubiyotini takomillashtirish bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda turizm salohiyatini oshirish hamda undan samarali foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot Strategiyasida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor maqsadlaridan biri sifatida, "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish" vazifasi belgilab berildi. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashning hozirgi sharoitlarida turizm sohasining investitsion jozibadorligini oshirish, davlat va xususiy biznesning sheriklik mexanizmidan foydalangan holda turizm salohiyati rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, turizm ehtiyojlarini sifatli va miqdoriy jihatdan qondira oluvchi turli yangi innovatsion yondashuvlarni shakllantirish, turizm salohiyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish hamda nazariy-uslubiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zaruratini vujudga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning tarqiyot strategiyasi

to'g'risida"gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2018-yil 13-fevraldagi PF-5781-son "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020-yil 19-martdagi PF-5969-son "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020-yil 28-maydagi PF-6002-son "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xorijiy mamlakatlar va O'zbekistonning turizm salohiyatini shakllantirish, rivojlantirish va ulardan foydalanish muammolariga ko'plab fundamental va amaliy tadqiqotlar bag'ishlangan. Yu.A.Barzikina, T.V.Pisarevskiy, M.B.Birjakova, T.V.Brusokene, M.N.Zabayevo, M.A.Krivulya, L.V.Ovcherenko singari xorijiy mualliflarning asarlari katta ilmiy va metodologik qiziqish uyg'otadi<sup>1</sup>. Shuningdek, inqiroz oqibatlarining turizm sohasi va uning salohiyatiga ta'siri tadqiq etilgan mualliflarning turli nuqtainazarlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Ular qatoriga O.Ye.Afanasyev, M.Gunare, S.G.Zemlyanixina, P.Keller va boshqalarni kiritish mumkin<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Барзыкин Ю.А. Актуальные вопросы государственной политики в сфере туризма / Ю.А. Барзыкин Е.Л. Писаревский Т.В. Абрамова // Туризм: право и экономика, 2011. – № 4. – С. 221.; Биржаков М.Б. Введение в туризм: Учебник; 9-е изд., перераб. и доп. – М.: Герда. - 2010. - 576 с.; Брусокене Т.В. Формирование и реализация туристского потенциала региона: Автореф. дис... канд. экон. наук. – СПб., 2004. – 23 с.; Забаева М.Н. Эффективное использование регионального туристского потенциала: теория, методология и практика: Автореф. дис. д-ра экон. наук. – Н. Новгород, 2011. – 23 с.; Кривуля М.А. Управление развитием туристического потенциала региона: Автореф. дис...канд. экон. наук. – СПб., 2012. – 20 с.; Логунцова И.В. Индустрия туризма в условиях пандемии коронавируса: вызовы и перспективы. //Государственное управление. Электронный вестник. Вып. № 80 (июнь). - 2020. – С. 40-65.; Овчаренко Л.А. Использование рекреационного потенциала в ускоренном экономическом развитии региона: теория, методология, практика: монография. – Донецк: ГОУ ВПО «ДонАУиГС», 2018. – 424 с.

<sup>2</sup> Афанасьев О.Е. Инновационные тренды в контексте глобальных угроз пандемии COVID-19: механизмы для туристской отрасли / О. Е. Афанасьев, А. В. Афанасьева // Современные проблемы сервиса и туризма, 2020. – Т. 14. – № 4. – С. 7-26.; Гунаре М. Индивидуальный туризм в ожидании перемен / М. Гунаре, О.Е. Афанасьев // Сервис в России и за рубежом, 2020. – Т. 14. – № 2(89). – С. 197-204.; Землянухина С.Г. Трансформация ценностных ориентаций населения в сфере туризма в условиях пандемии // Вестник

Turizm salohiyatini rivojlantirish muammosining ayrim yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-nazariy va amaliy masalalarni ishlab chiqishga A.A.Eshtayev, A.M.Abduvohidov, M.T.Alimova, A.N.Norchayev, Ye.V.Golisheva, X.F.Ochilova, M.T.Aliyeva, S.Nurmatova, S.R.Safayeva, B.X.Turayev, O.H.Hamidov singari mamlakatimiz olimlari munosib hissa qo‘shdilar<sup>3</sup>.

Mazkur ilmiy ishlarni tavsiflovchi o‘ziga xoslik shundaki, aksariyat mualliflar uning asosiy funksional maqsadi sifatida turizm infratuzilmasi obyektlari va turizm mahsulotiga talabni ta‘minlash nuqtai nazaridan e‘tibor qaratgan va ko‘rib chiqqan holda, turizm salohiyati tushunchasiga turli xil ma‘nolarni kiritadilar. Turizm salohiyatidan foydalanish va rivojlantirishga bag‘ishlangan ko‘plab ishlarga qaramay, turli tavsif, turli inqirozli hodisalar, jumladan, koronavirus pandemiyasi oqibatlarini bilan bog‘liq o‘zaro aloqalarini ko‘rsatuvchi jihatlar nuqtai nazaridan ularning yanada rivojlanishiga yondashuvlar, shuningdek, bunday murakkab sharoitlarida turizmning rivojlanishi va uning salohiyatiga ta‘sir etuvchi omillarni modellashtirish mavjud emas, bu esa dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligini asoslab beradi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishining mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiqilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** turizmni rivojlantirishning barqaror dinamikasiga erishish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

turizm salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-nazariy va uslubiy jihatlarini tahlil qilish va aniqlashtirish;

turizm salohiyati ta‘rifini turizm faoliyatini tashkil etish maqsadida mavjud resurslarning yig‘indisi va turizm industriyasini rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi nuqtai nazaridan tadqiq etish;

turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish va respublikada turizm salohiyatini rivojlantirishni boshqarish mexanizmlarini yoritib berish;

---

Ассоциации вузов туризма и сервиса. – 2020. – Т. 14. – № 1. – С. 13-18; Келлер П. Влияние мировых кризисов на туризм // Вестник РМАТ. 2013. № 3. - С. 17–20.

<sup>3</sup> Eshtayev A.A. O‘zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari. (Monografiya) – Samarqand: “Itrak yo‘li” Turizm va madaniy meros xalqaro universiteti nashriyoti, 2023. 8 bet; Abdvohidov A.M., Umirova D.S., Abriyev Z.S.Turizm rivojlanishini prognozlash. O‘quv qo‘llanma. – T.:TDIU, 2019. 43 bet; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida): iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2017. - 265 b.; Гольшева Е.В. Совершенствование организации и механизма регулирования развития туризма в рыночных условиях: Автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Т., 2012. – 25 с.; Очилова Ф.М., Жалолитдинова Х., Нурматова С. Туризм в Узбекистане после COVID-19. //Научно-электронный журнал «Экономические и инновационные технологии», 2021. - № 1 (январь-февраль). – С. 333-341; Safarova N.N. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga turizm sohasi ta‘sirini baholash usullarini takomillashtirish: i.f.d. dokt. dissertatsiya avtoref. – Tashkent, 2018; ТураевБ.Х. Развитие организационно-экономических механизмов управления региональным туризмом: Автореф...докт. экон. наук. – Т., 2011. – 52 с.; Hamidov O.H. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. dokt. (DSc) diss... avtoreferati. – Samarqand, 2017.-7 b.

turizmning respublika iqtisodiyoti rivojiga qo‘shgan hissasini tahlil qilish;  
turizm infratuzilmasining hozirgi holatini tahlil qilish va uni rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash;

turizm salohiyatini rivojlantirish uchun davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish mexanizmini taklif etish;

ichki turizmning innovatsion shakllarini ko‘rib chiqish va ularning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash;

turizm salohiyatini ekologizatsiya qilish mexanizmlarini tadqiq etish;

respublika hududlaridan foydalanish va ularaholisini “yashil turizm”ni rivojlantirishga jalb qilishning konseptual yondashuvlarini aniqlash;

turizm salohiyati rivojlanishini 2030-yilgacha ko‘p omilli ekonometrik modellar asosida prognozlash.

**Tadqiqotning obyekti** O‘zbekiston turizm tarmog‘i iqtisodiyoti va uning salohiyati hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** turizm salohiyatini rivojlantirish vositalarini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash jarayonlarida yuzaga keluvchi tashkiliy, iqtisodiy va boshqaruv munosabatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, monografik bayon, mantiqiy va iqtisodiy-statistik tahlil, modellashtirish, taqqoslash, statistik ma’lumotlarni guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiya va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “turizm salohiyati” tushunchasiga oid ilmiy qarashlar hamda konseptual qoidalar yoritib berilgan bo‘lib, bu o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sir qiluvchi turli xil elementlardan tashkil topgan, uning murakkab, uyushgan va tizimli tabiati haqidagi ilmiy nuqtai nazarni, aynan salohiyat turizm sohasi uchun muhim ahamiyatga egaligini, keyingi rivojlanish obyekti turiga va undan foydalaniladigan vazifalarga ko‘ra aniq tarkibning to‘liqligiga bog‘liq ekanligi asoslangan;

davlat-xususiy sheriklik negizida turoperatorlar va mehmonxona xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarining davlat boshqaruv idoralari bilan hamkorlikda milliy turizm mahsulot va xizmatlarini xalqaro nufuzli turizm va marketing platformalarida reklama qilish xarajatlarini Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan qoplab berish tartibini joriy qilish orqali turizm salohiyatini rivojlantirish taklifi;

viloyatlar hududlarida mahallalar aholisini faol jalb etgan holda ekologik ongini tarbiyalash va madaniy-tarixiy merosni asrab-avaylash orqali “yashil turizm”ni rivojlashtirish konseptual yondashuvini amalga oshirish taklifi;

O‘zbekiston turizm salohiyatini rivojlantirishda ko‘p omilli ekonometrik modellardan foydalanish orqali 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi tomonidan Respublikada turizmni rivojlashtirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish taklifi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda turizm turlari va uning industriyasi shakllanish xususiyatlari tizimli tahlil qilingan;

turizm salohiyatini davlat tomonidan tartibga solishning institutsional mexanizmlari takomillashtirilgan;

hududlarda shakllangan ichki turizmning samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar baholangan;

turizm sohasining O‘zbekiston iqtisodiyotiga qo‘shgan hissasining o‘zgarish dinamikasi tahlil qilingan;

O‘zbekiston hududlarida turizm salohiyatini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish shakllari taklif etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining asoslanganligi turizmga oid statistik ma’lumotlardan keng foydalanish, amaliy muammolarni hal etishda ilmiy tadqiqot va nazariy ishlanmalarning zamonaviy usullaridan foydalanish, xulosalar, taklif va tavsiyalarni amaliyotda sinab ko‘rish, shuningdek, olingan natijalarni amaliyotda qo‘llash bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turizm sohasini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini yanada kengaytirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda, turizm salohiyatidan foydalanish bo‘yicha asoslab berilgan nazariy va amaliy tavsiyalardan, uni rivojlantirish istiqbollari prognoz variantlarini aniqlaydigan muhim ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undagi uslubiy ishlanmalardan turizm salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha maqsadli kompleks dasturlarni ishlab chiqishda, mamlakat hududidagi turizmni boshqarish organlari va turizm korxonlari tomonidan O‘zbekistonda ichki va tashqi turizm salohiyatini rivojlantirish to‘g‘risida qaror qabul qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Turizmni rivojlantirishning barqaror dinamikasiga erishish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “turizm salohiyati” tushunchasiga oid ilmiy qarashlar hamda konseptual qoidalar yoritib berilgan bo‘lib, u o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sir qiluvchi turli xil elementlardan tashkil topgan murakkab, uyushgan va tizimli tabiati haqidagi ilmiy nuqtayi nazar ekanligi, aynan salohiyat turizm sohasi uchun muhim ahamiyatga egaligi, keyingi rivojlanish obyekt turiga va undan foydalaniladigan vazifalarga ko‘ra aniq tarkibning to‘liqligiga bog‘liq ekanligini asoslovchi nazariy-uslubiy ishlanmalardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan “Barqaror turizmni rivojlanishi” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2023-yil 28-apreldagi 119-son buyrug‘i). Mazkur ilmiy nuqtai nazarning o‘quv adabiyotida ilmiy asoslanishi natijasida talabalar va ilmiy tadqiqotchilarning

“turizm salohiyati” tushunchasiga oid ilmiy qarashlari yanada kengayishiga imkon yaratilgan;

davlat-xususiy sheriklik negizida turoperatorlar va mehmonxona xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarining davlat boshqaruv idoralari bilan hamkorlikda milliy turizm mahsulotva xizmatlarini xalqaro nufuzli turizm va marketing platformalarida reklama qilish xarajatlarini Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan qoplab berish tartibini joriy qilish orqali turizm salohiyatini rivojlantirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga 4a-ilova “2023-yilda turizm sohasidagi resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hamda mavjud muammolarni tezkor hal yetish bo‘yicha Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishda e‘tiborga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 13-sentabrdagi 02-11-15-16-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy yetish natijasida turizm sohasida tadbirkorlik subyektlar soni 5-8 foizgacha o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lishni ta‘minlash orqali tadbirkorlik muhitidagi ijobiy dinamik o‘zgarishlarni amalga oshirishga imkon yaratilgan;

viloyatlar hududlarida mahallalar aholisini faol jalb etgan holda ekologik ongini tarbiyalash va madaniy-tarixiy merosni asrab-avaylash orqali “yashil turizm”ni rivojlashtirish konseptual yondashuvini amalga oshirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi tomonidan Respublikada turizmni rivojlashtirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 14-sentabrdagi 02-11-15-16-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etish natijasida turizmning ijtimoiy ahamiyati yanada oshirish, xususan, ekologiya va atrof muhit muhofazasini yaxshilash, aholining reproduktiv salomatligida ijobiy o‘zgarishlarga erishish, iqtisodiy nuqtayi nazardan turistlarning yangi segmentini shakllantirish, ya‘ni yashil turizm mahsulotini iste‘mol qilishga qiziquvchi turistlar sonini ko‘paytirish imkoni yaratilgan;

O‘zbekiston turizm salohiyatini rivojlantirishda ko‘p omilli ekonometrik modellardan foydalanish orqali 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi tomonidan Respublikada turizmni rivojlashtirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023-yil 14-sentabrdagi 02-11-15-16-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etish natijasida 2030-yilga borib turizm xizmatlari eksportini 4,7 martaga, xorijiy turistlar sonini 3,2 martaga oshirish imkoni aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan jurnallarda 4 ta ilmiy maqola nashr etilgan, shundan,

2 tasi respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda hamda 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda tezislar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 155 betni tashkil etadi, unda 23 ta jadval, 29 ta rasm va 11 ta ilova mavjud.


## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy qilinganligi, sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tarkibi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Turizm salohiyatini shakllantirish va rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida turizmning mohiyati va turizm salohiyatini oshirishning vazifalari o'rganilib, O'zbekistonda uni rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish masalalari yoritib berilgan, shuningdek, institutsional muhit va turizm salohiyatini rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasi belgilab berilgan.

Turizmni rivojlantirishning jahon amaliyotida uning salohiyatidan samarali foydalanishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Xuddi shunday jarayonlar ulkan sayyohlik salohiyatiga ega O'zbekistonda ham kuzatilmoqda. Boy tabiiy salohiyat, madaniy va tarixiy meros obyektlari mavjudligi, mehmonxona va kurort biznesi rivojlanganligi, turizm xavfsizligi darajasi yuqori ekanligi, barqaror siyosiy vaziyat va boshqa sharoitlar turizmni yanada rivojlantirish uchun qulay omillar hisoblanadi. Tabiiy resurslar, madaniy qadriyatlar va turizm salohiyatining boshqa tarkibiy qismlarining ko'pligiga qaramay, transport infratuzilmasida, turizm xizmatlari ko'rsatishda ba'zi muammolar mavjud bo'lib, sayyohlarning tashrifi va xarajatlari ularning yechimiga bog'liq.

Turizm salohiyati tabiiy resurslar, tarixiy va madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarni o'z ichiga olgan resurslar kompleksidan iborat. Biroq keltirilgan resurslar kompleksi ro'yxati yakuniy va to'liq emas, ularning soni qo'yilgan maqsadlarga, ularga erishish usullariga va buning uchun zarur resurslarga bog'liqligi muallif tomonidan ilmiy asoslab berilgan (1-rasm).




**1-rasm. Turizm salohiyatning asosiy tarkibiy qismlari<sup>4</sup>**

Tadqiqotda “turizm salohiyati” tushunchasiga yondashuvlar va terminologiyani farqlashga alohida e’tibor berilgan. Muallif tomonidan “turizm salohiyati” tushunchasiga ilmiy asoslangan ta’rif beriladi. Unga ko’ra “turizm salohiyati” turizmni rivojlantirish uchun ma’lum bir hududda mavjud resurslar, tarixiy-madaniy, tabiiy-resurs, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatlar, shuningdek, ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy samara olish va turistlar uchun jozibadorlik darajasini oshirish imkoniyatlari majmuasidir. Shu o’rinda, turizm salohiyati o’zaro bog’liq va o’zaro ta’sir qiluvchi turli xil elementlardan tashkil topgan uning murakkab, mujassam va tizimli tabiatini ifoda etadi. Aynan salohiyat turizm sohasi uchun muhim ahamiyatga ega, keyingi rivojlanish obyekt turiga va undan foydalanish bo’yicha vazifalarga qarab aniq tarkibning to’liqligiga bog’liq.


Turizm salohiyati tizim hisoblanadi, shunga ko’ra u har qanday tizimning yaxlitligi, elementlarning kutilmaganda paydo bo’lishi va bo’linuvchanligi singari xususiyatlarga ega. Shu bilan birga turizm salohiyati maxsus, faqat o’ziga xos fundamental xususiyatlarga ham ega bo’lib, u 2-rasmda keltirilgan.

<sup>4</sup> Manba: muallif tomonidan tuzilgan.



**2-rasm. Turizm salohiyatining o'ziga xos fundamental xususiyatlari<sup>5</sup>**

Turizmni rivojlantirish barqaror dinamikasiga erishish boshqaruvni talab etadi. Turizm salohiyatining rivojlanishini boshqarish mavjud resurslarni turizm mahsulotiga aylantirish orqali kelgusida tuzatish kiritilishi kerak bo'lgan, belgilangan vazifani amalga oshirishga qaratilgan harakatlar to'plamidir. Turizm salohiyatining rivojlanishini boshqarishdan maqsad uning barqaror rivojlanish dinamikasini ta'minlash bo'lib, u quyidagi asosiy bosqichlardan iborat: boshqaruv maqsadini qo'yish aniqligi va unga erishishning optimal muddatlarini belgilash; boshqaruv obyekti haqida axborot to'plash, tizimlashtirish va tahlil qilish; maqsadga erishish usullarini optimallashtirish, qaror qabul qilish va boshqaruv jarayoni yo'nalishlarini tanlash; belgilangan maqsadga erishish jarayonlarini tashkil qilish; ularning bajarilishini nazorat qilish (3-rasm).



**3-rasm. Turizm salohiyatini rivojlantirishni boshqarish bosqichlari<sup>6</sup>**

<sup>5</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>6</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

Turizm salohiyatini rivojlantirishni boshqarishning mexanizm va vositalarini tahlil qilishdan kelib chiqqan holda, boshqaruvni davlat va mahalliy darajada, shu jumladan, respublika viloyatlari va mintaqalarining muayyan hududlar mahallalari darajasida muvofiqlashtirish zarur, degan fikr asoslanadi, bu turizm industriyasida xo‘jalik faoliyatining barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatish va ularni takomillashtirishni ta’minlaydi. Turizm salohiyatini samarali shakllantirish, rivojlantirish va amalga oshirish uning resurslar tarkibiy qismini, resurslarning hududiy kombinatsiyasi va ularni amalga oshirish shartlarini har tomonlama tahlil qilgan holda bo‘lishi mumkin.

Turizmni rivojlantirish ikkita asosiy mexanizm orqali: talab va taklif muvozanatiga erishish yo‘li bilan bozorning o‘zini-o‘zi tartibga solishi orqali hamda davlat tomonidan boshqarish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini joriy etish vositasida amalga oshiriladi. Shuni hisobga olgan holda, ishda Pandemiya oldingi, pandemiya va undan keyingi muddatlarda Yangi O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish va uning salohiyatini oshirish siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilangan (4-rasm).

Bosqich		Davr		Mazmuni
▼		▼		▼
<b>1- bosqich</b>	▶	2019-2020 yillar	▶	turizmni rivojlantirish uchun mustahkam Qonunchilik bazani yaratishga qaratilgan institusional islohotlar, infratuzilmani modernizatsiyalash va mamlakat brendini targ‘ib qilish
▼				
<b>2- bosqich</b>	▶	2021-2025 yillar	▶	mamlakat iqtisodiyotida turizm industriyasi ulushini ko‘paytirish. Ushbu yo‘nalishda zarur infratuzilmani rivojlantirish va dunyo bozorida respublikaning turizm salohiyatini targ‘ib qilish orqali mamlakatning yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 5 foizgacha (2017 yil yakuni bo‘yicha – 2,3%) yetkazish, shuningdek, 2025 yil yakuniga qadar 9 milliondan ortiq turistlarni, shu jumladan, uzoq xoriждан – 2 million turistni jalb qilish belgilab quyilgan
▼				
<b>3- bosqich</b>	▶	Uzoq muddatli istiqbol	▶	turizm milliy iqtisodiyotdagi yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan, mintaq va dunyo turizm xizmatlari bozoriga eng raqobatbardosh davlatlar qatorida kirib borishi mumkin

#### **4-rasm. Yangi O‘zbekistonda turizm salohiyatini oshirish siyosatining asosiy yo‘nalishlari<sup>7</sup>**

Dissertatsiyaning “O‘zbekistonda turizm salohiyati rivojlanishining hozirgi holati va uning samaradorligini baholash” nomlangan ikkinchi bobida turizmning mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shgan hissi baholangan, turizm infratuzilmasini rivojlantirishning hozirgi holati va muammolari yoritib berilgan, turizm salohiyatini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari ishlab

<sup>7</sup>Muallif tomonidan tuzilgan.

chiqilgan. Turizm sohasi rivojlanishining miqdoriy ko'rsatkichlari uning salohiyatidan foydalanish va o'tgan yillar nisbiy ko'rsatkichlarining o'sishi tendensiyalarini aks ettiradi.

Turizmning barcha xizmat turlarini iste'mol qilish hajmi va tarkibiga bevosita va bilvosita ta'siri ajratib ko'rsatiladi. Jahon sayyohlik tashkiloti hamda Jahon turizm va sayohatlar kengashi uslubiyatiga muvofiq<sup>8</sup> turizm industriyasi xizmat ko'rsatish sohasining qo'shilgan qiymatini va mamlakat yalpi ichki mahsulotini shakllantirishga bevosita hissa qo'shadi.

Qo'shimcha va tegishli xizmatlar korxonalarini hisobga olgan holda, bu mamlakat turizm xo'jaligi butun kompleksining bilvosita va induksiyalashgan daromadlarini oshiradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatga tashrif buyurgan har 20 nafar turist 1 ta bevosita turizm sohasida va 2 ta turizmga bog'liq iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yangi ishchi o'rinlari ochilishiga yordam beradi.

Bunday usulning afzalligi shundaki, u turizm sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini kompleks baholash, uning turizm salohiyatidan foydalanish, shuningdek, turizmning mamlakat YaIMni shakllantirish va jahon iqtisodiyotiga qo'shadigan umumiy hissasi haqida ishonchli ma'lumotlar olish imkonini beradi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Jahon turizm va sayohatlar kengashi (WTTC) metodologiyasiga ko'ra turizm sektori iqtisodiyotga qo'shadigan hissasining tarkibiy xususiyatlari<sup>9</sup>

Bevosita hissa	Mehmondo'stlik xizmatlari: yashash, ovqatlanish, transport, diqqatga sazovor joylar va ko'ngilochar joylar.
	Tarmoqlar: mehmonxonalar va restoranlar, transport, turagentliklar, chakana savdo, madaniyat, sport, rekreasiya.
	Daromad manbalari: rezidentlarning turizm va safar xarajatlari, turizm xizmatlari eksporti (nerezidentlarning xarajatlari, rezidentlarning ish safari xarajatlari, individual davlat xarajatlari)
Bilvosita hissa	Turizm sohasiga investisiyalar: Jamoaviy davlat xarajatlari, ichki ta'minot va xaridlar
Indusiylangan hissa	Ixtisoslashgan turizm korxonalarining moddiy-texnika ta'minoti
	Turizmda band bo'lgan xodimlar hayot faoliyati, tovarlari va xizmatlari (oziq-ovqat, ichimliklar, kiyim-bosh, turar-joy xizmatlari va xo'jalik tovarlari)

Turizm sohasining to'g'ridan to'g'ri, bilvosita va induksiyalashgan ta'siri koronavirus pandemiyasi va uning oqibatlarini bilan bog'liq mavjud global noaniqlik fonida turizm salohiyatidan samarali foydalanish uchun sohani mas'uliyatli boshqarish zarurligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, dissertatsiya ishida O'zbekistonda ichki turizm iste'moli samaradorligini oshirish yo'llarini rag'batlantirish chora-tadbirlari tahlil qilingan bo'lib, ularning orasida quyidagilarni aytib o'tish mumkin: turizm mahsulotini

<sup>8</sup> Вспомогательный счёт туризма: рекомендуемая методологическая основа, 2008: Нью-Йорк, ООН, 2010, с. 10-22; Международные рекомендации по статистике туризма, 2008 год / Департамент по экономическим и социальным вопросам. Статистический отдел; - Мадрид, Нью-Йорк: 2010. – 179 с.; Travel & Tourism Economic Impact Research Methodology. WTTC /Oxford Economics 2018. – 36 P.

<sup>9</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

sotishni ragʻbatlantiruvchi, chegirmalar, bonuslar, aksiyalar va boshqalarni taqdim etishni nazarda tutuvchi turli xil tadbirlarni amalga oshirish; respublika viloyatlarida faoliyat yuritayotgan turizm va rekreatsiya klasterlari doirasida hududda tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi koʻplab ishtirokchilarni kiritish hisobiga turizm mahsulotini yaratish zanjiridagi boʻgʻinlar sonini koʻpaytirish; turistlarning dam olishi, koʻnikmalarini rivojlantirish, shu jumladan, boshqa texnologiyalarni qoʻllash orqali xarajatlarini qisman qoplaydigan vositalarni ishlab chiqish. Shuningdek, maʼlumotlar toʻplash, statistika va bozor tahlilini yanada takomillashtirish zarur.

Oʻzbekistonda turizmning YaIMga umumiy hissasi, jumladan, investitsiyalar, taʼminot zanjiri va daromadlar taʼsirining kengroq samarasi joriy narxlarda (2022-yilda) 16549,9 milliard soʻmni tashkil etgan, bu 2007-yildagiga nisbatan 17,4 baravar koʻpdir (2-jadval).

## 2-jadval

### Turizm sohasining Oʻzbekiston iqtisodiyotiga qoʻshgan hissasi dinamikasi<sup>10</sup>

Koʻrsatkichlar	Yillar							
	2007	2010	2016	2018	2019	2020	2021	2022
<b>Turizmning YaIMdagi umumiy hissasi, joriy narxlarda, mlrd. soʻm</b>	949,2	2263,5	5811,1	10415,6	12294,3	1084,7	16077,7	16549,9
<b>Turizmning YaIMdagi toʻgʻridan toʻgʻri hissasi, joriy narxlarda, mlrd. soʻm</b>	331,0	751,0	1787,0	3369,0	3984,0	361,5	5,202,9	5253,6
<b>Turizmning bandlikdagi toʻgʻridan toʻgʻri hissasi, ming kishi</b>	92,5	114,8	95,9	120,3	121,3	42,5	90,7	122,2
<b>Turizm sohasiga davlat xarajatlari, joriy narxlarda, mlrd. soʻm</b>	4,3	12,8	42,5	58,8	68,8	54,3	64,7	79,8
<b>Turizmga kapital qoʻyilmalar, joriy narxlarda, mlrd. soʻm</b>	141,3	357,8	1047,3	1808,2	2125,8	1520,6	1850,7	2357,8

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish muhimligi turizm xizmatlari ishlab chiqarish va taqsimlash samaradorligiga taʼsir etadi. Shuni hisobga olgan holda dissertatsiyada respublika viloyatlarining uzoq hududlarida turizm sohasi

<sup>10</sup> Knoema maʼlumotlar bazasi asosida tuzilgan.

infratuzilmasining rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan, bu turizm xizmatlariga taklifni oshiradi. Shu bilan birga, globallashuv va jahon turizm bozorida keskin raqobat sharoitida turizm xizmatlari sifati va darajasi har doim ham zamonaviy talablarga, ayniqsa, turizm industriyasining moddiy-texnik bazasiga javob bermasligini ta’kidlash lozim.

O‘zbekistonda turizm infratuzilmasi obyektlarini yaratish, turizm sohasini rivojlantirish va turizm salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida davlat hokimiyat organlari va xususiy biznesning sa’y-harakatlarini birlashtirishning eng istiqbolli usuli davlat-xususiy sheriklik hisoblanadi. Shu sababli dissertatsiya ishida DXSHdan turizm salohiyatini rivojlantirish maqsadlarini amalga oshirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida foydalanish bo‘yicha taklif ishlab chiqildi.


### 3-jadval

#### O‘zbekistonda turistlarni joylashtirish vositalari soni<sup>11</sup>

Ko‘rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
<b>Jami joylashtirish vositalari</b>	<b>2092</b>	<b>2425</b>	<b>2789</b>	<b>4015</b>	<b>5029</b>
<b>mehmonxonalar</b>	810	833	895	920	935
<b>xostellar</b>	106	214	230	245	596
<b>dam olish hududlari</b>	22	29	32	41	35
<b>yotoqxonalar</b>	4	6	9	13	16
<b>kempinglar</b>	4	5	6	12	15
<b>motellar</b>	1	1	4	8	10
<b>sport bazalari</b>	1	2	2	14	3
<b>turizm lagerlari</b>	1	2	3	8	8
<b>o‘tov lagerlari</b>	15	22	26	24	26
<b>butik oteli</b>	4	13	15	24	25
<b>boshqalar</b>	1124	1298	1567	2706	3360

Tadqiqot natijasida muallif tomonidan turizm sohasida DXSH tashkil qilish shartlari va mexanizmlari; faoliyat yuritish va rivojlanish tamoyillari; turizm sohasidagi DXSH mexanizmida boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlashning tashkiliy asoslari; bunday sheriklik asosida faoliyat yurituvchi turizm sohasida infratuzilma obyektlarini rivojlantirish loyihalarida aholini tartibga solish va ishtirok etishning iqtisodiy mexanizmi aniqlandi. Davlat-xususiy sheriklik negizida turoperatorlar va mehmonxona xizmatlari ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarining davlat boshqaruv idoralari bilan hamkorlikda milliy turizm mahsulot va xizmatlarini, xususan, “yashil turizm” mahsulotini xalqaro nufuzli turizm va marketing platformalarida reklama qilish xarajatlarini Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan qoplab berish mexanizmini joriy etish amaliy taklifi berildi. Shundan kelib chiqib, dissertatsiya ishining ikkinchi bobida turizm sohasiga DXSHni joriy etish mexanizmi ishlab chiqildi (5-rasm).

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vazirligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.



**5-rasm. Mamlakat va uning viloyatlarida turizm salohiyatini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmi<sup>12</sup>**

Turizm industriyasida davlat tuzilmalarining xususiy tadbirkorlar bilan salohiyat imkoniyatlarini aniqlash uchun turizm va investor uchun potensial qiziqarli bo'lgan turizm sohasi obyektlarini aniqlash hamda investitsiya kiritish maqsadida jozibdor turizm obyektlarini tahlil qilish milliy uslubiyatini ishlab chiqishni o'z ichiga oluvchi kompleks tadqiqot o'tkazildi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda turizm salohiyatini rivojlantirishning uslubiy yondashuvlari va prognozlarini”** deb nomlangan uchinchi bobida ichki turizmning innovatsion shakllarini rivojlantirish, “yashil turizm”ni rivojlantirish uchun turizm va rekreatsiya salohiyatidan foydalanishning konseptual yondashuvlari aniqlangan, ko'p omilli modellashtirish amalga oshirilgan va

<sup>12</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.


O‘zbekistonning turizm salohiyatini rivojlantirish ko‘rsatkichlarining prognozlari amalga oshirilgan.

O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi tabiiy va madaniy muhitni muhofaza qilish, mahalliy aholining hayot sifatini yaxshilash, sayyohlarga yuqori xalqaro standartlarga javob beruvchi yashash sharoitlarini taqdim etishni ta‘minlaydigan o‘z hududini rivojlantirishni rejalashtirish va boshqarishni nazarda tutadi. Mamlakatning aksariyat tumanlari va mintaqalarining mashhurligi ko‘pincha atrof-muhitning tozaligi va mahalliy madaniyatning o‘ziga xosligiga asoslanadi. Shu munosabat bilan, faqat barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillariga rioya qilgan holda, respublikada “yashil turizm”ni rivojlantirishni muvaffaqiyatli ta‘minlash mumkin.

Ishda ta‘kidlanishicha, noyob tabiiy resurslar va madaniy merosning o‘zi mamlakatda “yashil turizm”ning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta‘minlashning yagona va yetarli sharti sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin emas. Sayyohlik-rekreasion komplekslar va hududiy infratuzilmani bir vaqtda rivojlantirish, kirish va ichki turizmni keng axborot bilan ta‘minlash, xizmatlar sifatini oshirish hamda sohaga professional kadrlar va yuqori malakali mutaxassislarni birgalikda jalb etish bilan birga resurslardan samarali va oqilona foydalanish o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda turizm bozori korxonalarining raqobatbardoshligini oshiradi.

O‘zbekistonda turizmning keng rivojlanayotgan turlari (ziyosat, ekologik, ma‘rifiy, etnografik, gastronomik, sport, sog‘lomlashtirish, agroturizm, ishbilarmonlik turizmi va hikazo) mahalliy sayohatchilar tomonidan faol qabul qilinmoqda. Ularning faol dam olishini tashkil etish maqsadida kasallanish darajasi, shu jumladan, yurak-qon tomir kasalliklari bilan kasallanish darajasini pasaytirishga qaratilgan “Piyoda turistik marshrut” loyihasi amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan, ishda asosiy e‘tibor shunga qaratilganki, hozirgi sharoitda yirik shaharlar va qishloq joylarda sayyohlar va ularga xizmat ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun belgilangan shart-sharoitlardan kelib chiqib, turizm sohasida turistlarning ehtiyojlarini sifat va miqdor jihatdan qondira oluvchi turli xil yangi innovatsion yondashuvlarni shakllantirmay va joriy etmay, turizm salohiyatini to‘liq amalga oshirish imkonsizdir.

